hayoti va sog‘lig‘i va atrof-muhit holati uchun ekologik xavflarning cheklovchi asoslarini tushunish (mavzu mezoni), ekologik xavflarning maksimal bardoshliligini baholash uchun tabiiy fanlar sikli fanlarida fanlararo bilimlarni qo‘llash ustida ishlashga tayyorlik (operatsion mezon). Bo‘lajak shifokorning kasbiy kompetensiyasining ekologik komponentining tegishli elementlariga taalluqli tanlangan mezonlar holatidagi sifat farqlari uning shakllanishining uchta darajasini – reproduktiv, vaziyatli va mahsuldorlikni aniqlashga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Круне, Т.И. Қурилиш университети муҳандислик ва экология факультети талабаларининг касбий компетенциясини шакллантириш модели. Сибирь педагогик журнали, 2012, 86-бет.

(2). Давидов В.В. Ривожлантирувчи таълим назарияси. М., “ИНТОР”, 1996, 544-бет.

(3). Краевский В.В., Хуторской А.В. Таълим асослари: дидактика ва методика. Талабалар учун ўқув қўлланма, М., “Академия” нашриёт маркази, 2007, 352-бет.

(4). Ermakov D.S. Talabalarning ekologik kompetensiyasini shakllantirish. M., MIOO, 2009, 180-bet.

(5). Kodirova, M.M., Muxammadova, G.Q. (2024). Pedagogik texnologiyalar tizimining tibbiyot fanlarini o‘qitishdagi o‘rni. PeDAGOGS, 53(1), 37–41-betlar.

(6). Mukhammadova, G.Q., Kodirova, M.M., Boqijonov, F.A. (2024). The Effect of Industrial Enterprises on Atmospheric Air. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 28, 5–9 p.

Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna (Urganch davlat Pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi; shukurjonyeldashbayevna@gmail.com)

HOFIZ XORAZMIYNING SHAXS MA’RIFIY-AXLOQIY KAMOLOTIGA OID QARASHLARINING TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Hofiz Xorazmiyning shaxs ma’rifiy-axloqiy kamolotiga oid qarashlarining ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni, Hofiz Xorazmiyning ma’rifiy-axloqiy qarashlarini chuqur tahlil qilish va ularning ta’lim jarayonlaridagi ahamiyatini yoritishga bag‘ishlangan.*

Kalit so‘zlar: *Hofiz Xorazmiy, shaxs ma’rifiy-axloqiy kamoloti, ma’naviy va axloqiy qadriyatlar, ta’lim samaradorligini oshirishda tarbiya masalalari.*

РОЛЬ ВЗГЛЯДОВ ХАФИЗА ХОРАЗМИ НА ЛИЧНОСТНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И НРАВСТВЕННОЕ РАЗВИТИЕ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *Данная статья посвящена роли взглядов Хафиза Хорезми на образовательную и нравственную зрелость личности в повышении эффективности образования, углубленному анализу воспитательно-нравственных взглядов Хафиза Хорезми и их значению в воспитательном процессе.*

Ключевые слова: *Хафиз Хорезми, образовательная и нравственная зрелость человека, духовно-нравственные ценности, вопросы воспитания в повышении эффективности образования.*

THE ROLE OF HAFIZ KHWARZMI'S VIEWS ON THE EDUCATIONAL AND MORAL PERFORMANCE OF THE PERSON IN INCREASING EDUCATIONAL EFFICIENCY

Annotation. *This article is devoted to the role of Hafiz Khorezmi's views on the educational and moral development of the individual in increasing the effectiveness of education, an in-depth analysis of Hafiz Khorezmi's educational and moral views and their significance in the educational process.*

Keywords: *Hafiz Khorezmi, educational and moral development of the individual, spiritual and moral values, educational issues in increasing the effectiveness of education.*

Kirish. O‘zbekiston xalqining boy ma’naviy merosi asrlar davomida shakllanib, ulug‘ alloma va shoirlarning ijodiy faoliyati orqali boyib borgan. Xususan, o‘zbek adabiyoti XIV–XV asrlarda Atoiy (XIV asr oxiri – XV asrning birinchi yarmi), Mavlono Lutfiy (1366–1465), Gadoiy (XV asr oxiri), Sakkokiy (XV asr boshi), Hofiz Xorazmiy (XV asrning 30–40-yillari), Alisher Navoiy (1441–1501) kabi qalamkashlar ijodida yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davr o‘zbek adabiyotining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, Hofiz Xorazmiy o‘zining ijodiy faoliyati bilan ma’rifatparvarlik, insonparvarlik va axloqiy poklik kabi tamoyillarni ilgari surib, o‘z davri va undan keyingi avlodlar uchun mustahkam ma’naviy meros qoldirdi. Bugungi kunda Hofiz Xorazmiy ijodini o‘rganish va uning ma’rifiy-axloqiy qarashlarini zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu nafaqat o‘quv jarayonlarining samaradorligini oshiradi, balki yoshlarda yuksak axloqiy va ma’rifiy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim va bunda o‘sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlari va intilishlarini hisobga olish zarur” [1;270-b.] degan fikri aynan Hofiz Xorazmiy kabi mutafakkirlarning merosini ta’-

lim tizimiga singdirishning dolzarbligini yanada teran anglatadi. Uning ijodidagi insoniy sevgi va axloqiy fazilatlar haqidagi qarashlar yosh avlodni ma'naviy yetuklikka yetaklaydi. Shu sababli Hofiz Xorazmiyning shaxsiy ma'rifiy va axloqiy tamoyillari bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining tamal toshlaridan biri sifatida alohida e'tibor va ahamiyat kasb etishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sharq mutafakkirlarining tarbiya va axloqiy kamolotga oid qarashlari zamonaviy ta'lim tizimi uchun dolzarb bo'lib, ularni amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini yanada samarali va mazmunli qiladi. Xususan, J.Yusupov, R.Qoraboyeva, S.Hasanov, S.Qosimova, S.Nishonovalar, B.Xodjayev, M.Xayrullayev, M.Toxtaxodjayeva, O'.Yo'ldoshev va Sh.Abdullayevalar tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari davomida Sharq allomalarining buyuk merosini o'rganib, inson tarbiyasi borasidagi o'lmas g'oyalarni yangi ilmiy asoslar orqali yoritganlar. Ayniqsa, olima R.Qoraboyeva o'z tadqiqotlarida shaxsning ma'naviy kamolotida tarixiy-falsafiy va axloqiy qadriyatlarning o'rni haqida so'z yuritar ekan, eng avvalo, o'tmishning qayta tiklangan falsafiy qadriyatlarini ma'naviy kamolot omili sifatida nazariy jihatdan asoslab bergan [2]. Bu qarashlar bugungi kun ta'lim tizimining dolzarb masalalarini hal qilishda, xususan, yoshlarning axloqiy va ma'naviy kamolotini ta'minlashda muhim manba sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan Hofiz Xorazmiy ijodini o'rganish va tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Adabiyot, tarix tarbiya, falsafa va pedagogika fanlarini uyg'unlashtirgan holda Hofiz Xorazmiy shaxsiy kamoloti, ijodiy faoliyati va dunyoqarashida aks etgan ma'rifiy-axloqiy qadriyatlarni o'rganish orqali uning bugungi kun tarixiy-falsafiy va axloqiy qadriyatlarga mutanosibligini ko'rish mumkin. Shuning uchun Hofiz Xorazmiy merosini o'rganish va undan amaliy foydalanish ta'lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ustozimiz M.Sulaymonov tomonidan Hofiz Xorazmiyning didaktik g'oyalariga bag'ishlangan tadqiqotlari ham ushbu mavzuning dolzarbligini oshiradi. Jumladan, M.Sulaymonov Hofiz Xorazmiyning ijodida axloq-odob, insoniylik va komillikka intilish kabi g'oyalar naqadar yuksak darajada ifodalanganligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi [3]. Bundan tashqari, turkiyalik adabiyotshunoslar A.Ustuner va R.Toparli tomonidan Hofiz Xorazmiyning she'rlari asosida olib borilgan tadqiqotlar jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan. Ijodkor tomonidan ilgari surilgan g'oyalar zamonaviy ta'lim tizimida inson ma'naviy tarbiyasini yanada yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Hofiz Xorazmiyning boy merosini o'rganish va undan amaliy foydalanish nafaqat ta'lim jarayonlarining mazmunini boyitadi, balki milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hofiz Xorazmiy o'z davrining eng ilg'or ma'rifiy va axloqiy g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan mutafakkirlardan biridir. Uning asarlarida inson ma'naviy va axloqiy kamoloti masalalariga chuqur yondashilgan. Ijodkor qarashlari quyidagi ikki yo'nalishlarda yuksak ahamiyatga ega:

1. Hofiz Xorazmiy ijodida sevgi va ma'rifatning uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, sevgi insonning ma'naviy yuksalishi va mukammal shaxs bo'lishiga olib boradigan muhim vositalardan biridir. U sevgi nafaqat insonlar orasidagi munosabatlarni boyitadi, balki shaxsiy o'sish va ma'rifat sari yo'l ochadi, deb ta'kidlaydi.

Ma'shuq birla oshiq agar pok borsalar, Noz-u niyoz ikkisini sohib-i kamol etar [4;141-b.].

Bunday yonadashuvlarni Sharqning mashhur ijodkori Alisher Navoiy asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Jumladan, N.Bekova o'z tadqiqotlarida buni shunday asoslaydi: "oshiqning ma'naviy poklanishga bo'lgan ishonchi (ishq)ni yanada tezlashtiradi" [5;45-b.]. Zero, sevgi insonning o'z ruhiy imkoniyatlarini anglashga yordam beradi. Bu jarayon insonni ma'naviy barkamollikka olib kelib, unda yuqori axloqiy fazilatlarni shakllantiradi.

2. Hofiz Xorazmiy axloqni inson hayotining markaziy qismi sifatida qaraydi. Halollik, samimiyat, odillik va rostgo'ylik uning asarlarida asosiy axloqiy fazilatlar sifatida ko'rsatilib, insonning nafaqat o'z hayotida, balki jamiyat oldidagi mas'uliyatiga ham e'tibor qaratiladi.

Banda-yi xaq bo'lu olamning uza sulton bo'l,
Iyd-i jon izda-yu g'am matbaxida qurbon bo'l.
Necha san devsifat xalq ora yurugasan,
Kunj-n uzlatni talab aylavu xush inson bo'l. [6:16-b.]

Hofiz Xorazmiy tomonidan e'tirof etilgan axloqiy poklik va halollik tamoyillari Sharqning mashhur ijodkorlari Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy va Alisher Navoiy didaktik qarashlari bilan uyg'unlashtirgan holda tadqiq etsak, ular sharqona axloqqa oid umumiy qadriyatlarini aks ettiradi. Fariduddin Attor insonning ichki dunyosini poklash va ma'naviy barkamollikka erishishni hayotning eng oliy maqsadi sifatida talqin qilgan bo'lsa [7;41–43-b.], Jaloliddin Rumiy hayot falsafasida bag'rikenglik, halollik va adolatni insoniy munosabatlarning tayanchi sifatida tasvirlagan [8;104–137-b.]. Alisher Navoiy esa "adolat ustuvor-

ligi" [9;63-b.] va shaxs samimiyatini jamiyat barqarorligining asosi deb bilib, o‘z asarlarida axloqiy tarbiyani komil insonni shakllantirishning asosiy tamoyili sifatida targ‘ib qilgan. Zotan, yuqorida keltirilgan ijodkorlarning barchasi insonni nafaqat o‘z ichki dunyosini, balki jamiyatdagi o‘z o‘rnini ham halollik va poklik bilan o‘lchashga da’vat etadi.

Bu jihatlarni tadqiq etish jarayonida turli fanlar, xususan, o‘zbek klassik adabiyoti, zamonaviy pedagogika, falsafa, tarix, tarbiya va boshqa fan-sohalarning integratsiyalashuvi ilmiy yangilik sifatida talqin qilish uchun mustahkam zamin yaratadi. Ayniqsa, Hofiz Xorazmiyning ijodi o‘zbek klassik adabiyotining eng yorqin namunalari qatorida turib, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, axloq-odob va ma’rifat masalalarini yuksak badiiylik bilan yoritadi. Uning satrlaridagi g‘oyalar insoniyatning ma’naviy yuksalishiga xizmat qilib, ularni tarbiyaviy jarayonlarda foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Shoirning devoni mazmunan chuqur, shaklan nafis va g‘oyaviy jihatdan boy she’riy satrlarni o‘z ichiga olib, har bir o‘quvchini yuksak axloqiy fazilatlarga chorlaydi. Ta’lim jarayonida shoir devonidagi badiiy qarashlarni qo‘llash orqali yosh avlodni ma’naviy barkamollikka yetaklash, ular qalbida insonparvarlik va adolat tuyg‘ularini shakllantirish, dunyoqarashlarini boyitish kabi muhim pedagogik maqsadlarga erishish mumkin (1-jadval). Bu nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki yoshlarning axloqiy va intellektual rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.



1-jadval. Hofiz Xorazmiy devonidan o‘rin olgan badiiy qarashlardan foydalanishning pedagogik maqsadlari.

Tahlil va natijalar. Biz yuqorida qayd etib o‘tgan Hofiz Xorazmiyning misralari sevgi va axloqni inson hayotining ikki ustuni sifatida talqin qiladi. Birinchi baytda sevgining inson ma’naviy yuksalishidagi o‘rni haqida so‘z yuritadi. U sevgi faqat insonlar o‘rtasidagi hissiy bog‘liqlik emas, balki ularga o‘zlarini mukammal qilish imkonini beruvchi oliy ma’naviy vosita ekanligini ta’kidlaydi. Shaxsiy munosabatlarda "poklik"ni, ya’ni halollik va sof niyatni saqlash sevgi orqali insonni kamolot sari yetaklaydi. Baytda "noz va niyoz" tushunchalari orqali sevgi jarayonida ikki tomonning o‘zaro hurmat va mehribonlik bilan kamolotga erishishi tasvirlanadi. Bu nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy munosabatlarni ham boyituvchi tamoyil bo‘lib, insonning o‘z imkoniyatlarini to‘liq ochib berishida muhim o‘rin tutadi. Hofizning bu fikrlari zamonaviy psixologik yondashuvlar bilan uyg‘un bo‘lib, sevgining inson hayotidagi ijobiy o‘zgarishlarni rag‘batlantiruvchi kuch ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchi bo‘lib keltirib o‘tilgan satrlarda esa ijodkor axloqni inson hayotining markazi sifatida talqin qiladi. "Banda-yi xaq" degan ifoda orqali u insonning haqiqat va adolatga bog‘liq bo‘lishini asosiy qadriyat sifatida ko‘rsatadi. Hofiz halollik, samimiyat va rostgo‘ylikni oliy axloqiy fazilat sifatida tilga olib, inson o‘z hayotini faqat moddiy boylik yoki mansabga emas, balki ruhiy poklik va haqiqat izlashga bag‘ishlashi kerakligini ta’kidlaydi. "Iyd-i jon" va "g‘am matbaxi" kabi metaforalar orqali u insonni o‘z nafsoniyatini qurbon qilishga, ya’ni o‘z hayotida yuksak maqsadlar sari intilishga chaqiradi. Uning keyingi qismida qismida Hofiz insonlarni "devsifat", ya’ni shafqatsiz va odobsiz bo‘lishdan ogohlantiradi va "xush inson" bo‘lishni, ya’ni ruhiy va axloqiy jihatdan mukammallikka erishishni targ‘ib qiladi. "Kunj-n uzlat" tushunchasi esa insonning ichki sokinlik va ruhiy uyg‘unlikni izlashiga urg‘u beradi, bu orqali Hofiz hayotda oddiy moddiy maqsadlardan yuksakroq qadriyatlarni tanlashni tavsiya qiladi.

Bugungi kunda Hofiz Xorazmiy ushbu yondashuvlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘ta muhimdir. Chunki uning ma’rifiy-axloqiy tamoyillari yosh avlodni tarbiyalashda samarali yo‘nalishlarni belgilaydi va kelajakda quyidagilarni asoslaydi:

▪Hofiz Xorazmiy g‘oyalari yoshlarga o‘zida insoniylik, halollik, adolat va mas’uliyat kabi sifatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bu axloqiy tarbiyaning zamonaviy ta’lim tizimidagi asosiy maqsadlariga mos keladi.

▪Ijodkorning sevgi orqali ifodalan axloqiy yondashuvi va ishq masalasi bilan uyg‘unlashgan ma’rifat targ‘ib qiluvchi qarashlari yoshlarni o‘zlarini rivojlantirish va yuqori maqsadlarga intilishga undaydi.

▪Uning ijodiy merosini darsliklarga kiritish orqali ta’lim jarayonlarining mazmuni yanada boyib, qiziqarli bo‘ladi. Uning g‘oyalari yoshlarning ma’naviy kamolotiga hissa qo‘shadi.

▪Hofiz Xorazmiy qarashlarini o‘rganish orqali yoshlar milliy o‘zlikni anglash, qadriyatlarni hurmat qilish va ularni asrab-avaylashni o‘rganadilar.

Yuqoridagi fikrlarga ilmiy asoslangan holda, tadqiqot natijasida biz Hofiz Xorazmiy qarashlarini ta’lim tizimiga joriy etish yo‘llari nazariy asoslarni jadval shaklda ifodaladik (2-jadval).

2-jadval

T/r	Maqsad	Natija
1	O‘quv dasturlariga integratsiya qilish	Hofiz Xorazmiy qarashlarini maktab va oliy ta’lim muassasalari dasturlariga integratsiya qilish zarur. Bu adabiyoti, pedagogika, falsafa, tarix, tarbiya kabi fanlarning mazmunini boyitishga yordam beradi.
2	Multimediali darsliklar va materiallar yaratish	Uning asarlarini zamonaviy texnologiyalar yordamida interaktiv tarzda o‘rgatish yoshlar uchun qiziqarli va samarali bo‘ladi. Bu esa ta’lim sifatini oshiradi.
3	Ma’rifiy tadbirlar tashkil etish (davriy yoki bir sanani tanlagan holda)	Hofiz Xorazmiy asarlarining ma’rifiy va axloqiy ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan maxsus tadbirlar, seminar va davra suhbatlari o‘tkazish talab etiladi.
4	O‘qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash (doimiy)	Hofiz Xorazmiy qarashlari asosida pedagoglar uchun maxsus treninglar va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish lozim. Bu o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Hofiz Xorazmiy qarashlarini ta’lim tizimiga joriy etish yo‘llarining nazariy asoslari.

Xulosa va takliflar. Hofiz Xorazmiy sevgi va ma’rifatni insonni mukammal shaxsga aylantiruvchi kuch deb bilib, sevgi orqali insonning o‘zini anglashi va yuksak axloqiy fazilatlarni egallashini targ‘ib etadi. Bu tushunchalar zamonaviy pedagogik yondashuvlarga mos kelib, yoshlarning ma’naviy o‘sishi uchun amaliy asos yaratadi. Uning “poklik” va “halollik” tushunchalari individual kamolot va ijtimoiy munosabatlar uchun muhimdir. Shoirning ijodi yosh avlodning axloqiy tarbiyasini rivojlantirish va ta’limni milliy asosda mustahkamlashda o‘ziga xos o‘rin tutadi. U yoshlarni milliy o‘zlikni anglashga va umumiy insoniy qadriyatlarni hurmat qilishga o‘rgatadi.

Bizningcha, Hofiz Xorazmiy ijodining ta’lim jarayonidagi o‘rnini oshirish uchun quyidagilar amalga oshirilishini taklif etamiz:

▪Hofiz Xorazmiy asarlarini umumta’lim maktablari, akademik litsey va universitetlarning o‘quv dasturlariga integratsiya qilish. Bu o‘quvchilarning axloqiy va ma’rifiy kamolotiga xizmat qiladi.

▪Hofiz Xorazmiyning ijodiy merosini raqamli formatda interaktiv darsliklar sifatida ishlab chiqish. Bunda mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali Hofiz Xorazmiyning asarlarini yoshlar uchun qiziqarli shaklda taqdim etish. Shuningdek, shoir devonini audiokitob shakllarini yaratish, ularga asoslangan qisqa filmlar va animatsiyalar tayyorlash.

▪Hofiz Xorazmiy asarlaridan ilhomlanib, madaniy kechalar, insholar tanlovlari va sahnalashtirilgan spektakllar uyushtirish.

▪O‘qituvchilarni Hofiz Xorazmiy ijodiy merosiga asoslangan darslarni o‘tish bo‘yicha malakasini oshirish uchun maxsus kurslar tashkil qilish.

▪O‘qituvchilar uchun Hofiz Xorazmiy asarlarini ta’limda qo‘llash bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish.

▪Hofiz Xorazmiy asarlarining falsafiy, pedagogik va badiiy tahlilini kengaytirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish.

▪Hofiz Xorazmiy ijodini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish uchun xorijiy universitetlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

▪Hofiz Xorazmiy ijodiga bag‘ishlangan xalqaro va milliy ilmiy konferensiyalarni tashkil qilish.

Hofiz Xorazmiy ijodini ta’lim tizimiga integratsiya qilish bilan biz nafaqat yoshlarning individual rivojlanishiga, balki jamiyatning umumiy ma’naviy yuksalishiga erishamiz. Ushbu jarayon milliy madaniyatni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т., “O‘zbekiston”, 2021, 464 бет.

(2). Қорабоева Р.О. Тарихий-фалсафий ҳақиқатнинг тикланиши ва унинг шахс камолотидаги ўрнию Фалсафа фан. номзоди … дисс., Т., 2010, 156 бет.
(3). Сулаймонов М. Ҳофиз Хоразмий ахлоқ-одоб ҳақида. НамДУнинг 50 йиллигига бағишланган илмий тўплам, Наманган, 1992, 80–83-бетлар.
(4). Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 том, 1-китоб, Т., ЎзКПМК, 1981, 304 бет.
(5). Бекова Н.Ж. Алишер Навоийнинг ҳамд ғазаллари ва "Руҳ ул-қудс" қасидасининг бадиияти. Филол. фан. номзоди … дисс., Т., 2003, 137 бет.
(6). Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 том, 2-китоб, Т., ЎзКПМК, 1981, 312 бет.
(7). Matmuratov A.A. Farididdin Attor ma'naviy-axloqiy qarashlarining antropologik-pedagogik imkoniyatlari. //Inter education & global study. 2024, № 9, 38 – 44-бетлар.
(8). Зайнобидинова Н.И. Жалолиддин Румий тасаввуфий таълимотида инсон маънавий камолоти масаласи. Фалсафа фан. номзоди … дисс., Т., 2011, 158 бет.
(9). Жўраев Ҳ.А. Алишер Навоий лирикасида воқелик ва унинг поэтик талқинлари (ўзига хослик ва анъанавийлик асосида). Филол. фан. д-ри … дисс., Т., 2008, 247 бет.

Ashirova Anorgul Ismoilovna (Ma'mun universiteti "Umumkasbiy fanlar" kafedrasi dotsenti; anorgul76@gmail.com)

TA'LIMDA INTELLEKTUAL MULOQOT TIZIMLARI, CHAT-BOTLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada ta'limda intellektual muloqot tizimlarining, xususan, chat-bot tizimlari, ularni yaratish texnologiyalari, algoritmlari, dasturlari bo'yicha ilmiy fikr hamda mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *chat-bot, ANFIS, data-set, loyqa mantiq, neyron to'ri, noravshan mantiqli neyron to'ri, Sugeno algoritmi.*

Аширова Аноргул Исмоиловна (доцент кафедры общепрофессиональных наук университета Мамуна; anorgul76@gmail.com)

ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ДИАЛОГОВЫХ СИСТЕМ, ЧАТ-БОТОВ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В статье представлены научные мнения и выводы по поводу систем интеллектуальных диалогов в образовании, в частности, систем чат-ботов, технологий их создания, алгоритмов и программ.*

Ключевые слова: *чат-бот, ANFIS, набор данных, нечеткая логика, нейронная сеть, нейронная сеть с нечеткой логикой, алгоритм Сугено.*

Ashirova Anorgul Ismoilovna (Associate professor, Department of General Professional Sciences, Mamun University; anorgul76@gmail.com)

THE IMPORTANCE OF INTELLECTUAL DIALOGUE SYSTEMS, CHAT-BOTS IN EDUCATION

Annotation. *The article presents scientific opinions and conclusions regarding intelligent dialogue systems in education, in particular chatbot systems, technologies for their creation, algorithms and programs.*

Keywords: *chatbot, ANFIS, dataset, fuzzy logic, neural network, fuzzy logic neural network, Sugeno algorithm.*

Kirish (Introduction). Tabiiy til ma'lumotlarini avtomatik qayta ishlashning eng muhim yo'nalishlaridan biri bu intellektual dialog tizimlari va ularning soddalashtirilgan versiyalari chat-botlarini ishlab chiqish va takomillashtirishdir. Ushbu tizimlar tijorat loyihalarida tobora ko'proq foydalanilmoqda, bu yerda ular mijozlar bilan tovarlarni sotib olish, texnik yordam, veb-saytlarni navigatsiya qilish va hokazolarda yordam berish uchun foydalaniladi. Dialog tizimlari kasal va qariyalarga g'amxo'rlik qiluvchi ijtimoiy robotlar uchun aqlli aloqa modullari sifatida ishlatiladi. Muloqot tizimlarining vazifasi nafaqat foydalanuvchiga ularning muloqot qobiliyatlarini ko'rsatish, balki tabiiy tilda berilgan savolga eng to'g'ri javob berishdir. Tabiiy til ma'lumotlarini qayta ishlash uchun dasturiy vositalardan foydalanishga asoslangan va foydalanuvchilar tomonidan berilgan savollarga javob berishga mo'ljallangan dialog tizimlari savol-javob tizimlari deb ataladi. Zamonaviy savol-javob tizimlarida ma'lumot to'plash va tartibga solish, shuningdek, neyron to'rlariga asoslangan mashina o'rganishdan foydalanish imkonini beruvchi kontent-tahlil modullari mavjud. ChatGPT (OpenAI), Watson (IBM), virtual yordamchilar Elis (Yandex), Siri (Apple), Google Assistant, Amazon Alexa, Cortana (Microsoft) savollarga javob berish xizmatlari bunday tizimlarning taniqlilaridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mutaxassislarning ta'kidlashicha, dialog tizimlarining xususiyatlarini baholashning adekvat vositalariga ehtiyoj bor. Umumiy qabul qilingan